



## XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy, Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-18-66, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2023 - yil 26 - aprel

VI-69-39-7-99-K/23

Nurobod tuman hokimligi

**Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va  
“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga  
yo‘naltirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-  
apreldagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish  
hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi  
PQ-117-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorining ijrosini ta’minlash hamda Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmish to‘qqizinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-117-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b. O.Abdusalomovning axboroti - ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ochiq budjet” axborot portali orqali “Tashabbusli budjet” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya‘ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar ro‘yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b. (O.Abdusalomov)ga hamda tuman g‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i (E.Nahanov)ga budjetga tegishli o‘zgartirish kiritish, tumanning tegishli soha vakillari belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish topshirilsin.

4. Nurobod tuman “Nurobod” gazetasi (N.Botirova)ga, tuman hokimligining axborot xizmati (E.Pardayev) va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b. (O.Abdusalomov)lar bilan birgalikda 3-bosqich, ya‘ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Suyarov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmalariga yuklansin.

**Kengash raisi**



**S.Berdikulov**

Xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining  
2023 yil 26 apreldagi  
VI-69-39-7-99-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Nurobod tumani bo'yicha 2023-yil fevral-aprel (1-mavsum) oylarida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha**

**MANZILLI RO'YXAT**

ming so'mda

№	G'olib taklif ma'lumotlari					Amalga oshirishning aniqlangan dastlabki qiymati	Haqiqatda ajratiladigan*	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot	Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan hujjatlar	Xarid qilish tartib-taomili turi
	Taklif ID raqami	Manzili	Balansda saqllovchi	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni						
<b>"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan mablag'</b>							<b>6 727 000,0</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
1	00115222008	Jom MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	"Jom" mahalla fuqarolar yig'inidagi ichki yo'lni (23-umumta'lim maktabidan boshlab-Dukir-Tinchlik) asfalt qilish kerak. yo'l juda ta'mirlalab holatda.	18 013	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
2	0013338008	Arabota MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Nurobod tumaniga qarashli Tim qishlog'idagi Arabota MFYdan Bunyodkor MFY gacha bo'lgan tugallanmay qolgan oraliq yo'lga asfalt yotqizish.	10 662	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
3	0011038008	Omondara MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Omondara MFY (Gagarin ko'chasi) ko'chasining sel yuvib ketgan qismini ta'mirlash, mavsumiy sellarga qarshi temir-beton devorlarni barpo qilish, mavjud yo'lni asfaltlashtirish va yoritish chiroqlarini o'rnatish.	7 899	1 150 000,0	1 150 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash

4	0014807008	Qo'rg'oncha MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati Nurobod tumaniga qarashli 49 umum ta'lim maktabiga boradigan 5 kilometr ichki yo'lni asfalt yotqizishni so'rayman	7 754	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
5	0013324008	Chorvador MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Nurobod tuman Chorvador MFY Xazarmali qishlog'idagi ichki yo'llariga asfalt yotqizish	7 221	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
<b>JAMMI SUMMA</b>					<b>51 549</b>	<b>5 950 000</b>	<b>5 950 000</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>
<b>PQ-117-sonli qarorga asosan respublika budjetidan qo'shimcha</b>											
6	00144673008	Nurbuloq MFY	Tuman xalq ta'limi bo'limi	Nurobod tumanidagi o'quvchilar 2 smenada o'qiydigan 41-umumta'lim maktabiga q o'shimcha o'quv binosini qurish.	5 013	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
7	0018704008	Mash'al MFY	Tuman tibbiyot birlashmasi	Nurobod Tuman Tibbiyot birlashmasi markaziy shifoxonasi uchun yangi bino qurish	4 374	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
8	0011717008	Chortut MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Nurobod tuman Chortut MFY Tovoqbuloq qishlog'i asosiy kirish yo'lini 2000 metriga asfalt qoplamasi yotqizish	3 386	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
9	00138422008	Ag'ron MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Nurobod tuman Ag'ron MFYdagi markaziy yo'lning 2500 m qismiga asfalt yotqizish.	2 546	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
10	0011548008	Sahoba MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Sahoba MFY, Sahoba qishlog'ining asosiy ko'chasiga asfalt yotqizish hamda o'quvchilarning maktabga kelish va ketishi uchun piyodalar yo'lakchasi barpo etish.	2 293	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
11	0016358008	Po'latchi MFY	Tuman xalq ta'limi bo'limi	Nurobod tuman xalq ta'limiga qarashli 67-maktabning atrofini o'rash va fasad qismini kapital ta'mirlash hamda moddiy-texnik bazasini boy etish.	2 125	1 000 000	1 000 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"Yagona buyurtmachi xizmati" DUK	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash

12	00131923008	Olg'a MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Nurobod tumaniga olib boruvchi, hamda O'rtabo'z, Mehr, Olg'a va hazarmali qishloqlarini birlashtiruvchi 4N639 avtomobil yo'lining 17-29 kmlarini tosh bilan qoplangan qismini asfaltlash.	2 123	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
13	0016981008	Tepaqul MFY	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Tepaqul MFY va Ero'g'il qishlog'iga kirish qismini 4 kilometri asfalt yotqizish	2 027	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
<b>PQ-117-sonli qarorga asosan JAMI</b>					<b>23 887</b>	<b>9 400 000</b>	<b>9 400 000</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>
<b>G'olib deb topilgan takliflarning jami summasi</b>					<b>75 436</b>	<b>15 350 000</b>	<b>15 350 000</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>
<b>Taqsimlanmagan mablag'</b>							<b>777 000</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>X</b>